

**ABU NASR FOROBIY VA G‘AZZOLIYNING FALSAFA ILMIGA OID
QARASHLARINI QIYOSIY TAHLIL ETISH
(FOROBIYNING "SIYOSAT FALSAFASI" VA G‘AZZOLIYNING "KIMYOI
SAODAT" ASARLARI ASOSIDA)**

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs 3-24 guruh talabalari
Murodov Javohir Jahongir o'g'li
va Nishonova Shaxrizoda Anvar qizi
javohirmurodov067@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy va Abu Homid G‘azzoliyning falsafiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Forobiyning "Siyosat falsafasi" va G‘azzoliyning "Kimyoi saodat" asarlari asosida ularning ilm, aql, din va jamiyatga oid yondashuvlari tahlil qilinadi. Forobiy ilm-fan va aqlni ustuvor qo‘ysa, G‘azzoliy tasavvuf va axloqiy poklikni asosiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi. Maqolada bu ikki mutafakkirning umumiyligi va farqli jihatlari taqqoslanib, ularning ta’limotlari zamonaviy falsafaga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Forobiy, Imom G‘azzoliy, Islom falsafasi, Ideal jamiyat, Ilm-fan, Axloq, Tasavvuf, Haqiqiy bilim, Platon va Aristotel, Qiyosiy tahlil, Ikkinch muallim, Din va falsafa uyg‘unligi.

Annotation. This article provides a comparative analysis of the philosophical views of the great Eastern thinkers Abu Nasr al-Farabi and Abu Hamid al-Ghazali. Based on Al-Farabi's *The Philosophy of Politics* and Al-Ghazali's *The Alchemy of Happiness*, their approaches to knowledge, reason, religion, and society are examined. While Al-Farabi prioritizes science and reason, Al-Ghazali emphasizes Sufism and moral purification as fundamental values. The article compares the commonalities and differences between these two thinkers and explores the influence of their teachings on modern philosophy.

Keywords: Abu Nasr Farabi, Imam Ghazali, Islamic philosophy, Ideal society, Science, Ethics, Sufism, True knowledge, Plato and Aristotle, Comparative analysis, Second teacher, Harmony of religion and philosophy

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ философских взглядов великих восточных мыслителей Абу Насра аль-Фараби и Абу Хамида аль-Газали. На основе произведений «Философия политики» аль-Фараби и «Химия счастья» аль-Газали рассматриваются их подходы к знанию, разуму, религии и обществу. Если аль-Фараби ставил на первое место науку и разум, то аль-Газали подчеркивал важность суфизма и нравственного очищения.

В статье сопоставляются общие и отличительные черты их учений, а также рассматривается влияние их идей на современную философию.

Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, Имам Газали, Исламская философия, Идеальное общество, Наука, Этика, Суфизм, Истинное знание, Платон и Аристотель, Сравнительный анализ, Второй учитель, Гармония религии и философии

KIRISH . Forobiy va G'azzoliy Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq madaniyatining buyuk mutafakkirlaridan bo'lib, ularning qarashlari Sharq falsafasi va Islom tafakkurining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Forobiy Aristotel va Platon falsafasini izohlab, ilm-fan va mantiqni rivojlantirishga harakat qilgan bo'lsa, G'azzoliy diniy yo'nalishni tanlab, tasavvuf va axloqiy poklik masalalariga e'tibor qaratgan. Ushbu maqolada "Siyosat falsafasi" va "Kimyoi saodat" asarlari asosida ularning falsafiy qarashlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Abu Nasr Forobiy va Imom G'azzoliyning falsafiy qarashlari.

Abu Nasr Forobiy va Imom G'azzoliy Islom falsafasining ikki yirik namoyandasi bo'lib, ularning asarlari Sharq tafakkurining rivojiga katta hissa qo'shgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" va "Siyosat falsafasi" asarlarida ideal jamiyat va davlat boshqaruvi haqida fikr yuritiladi. Uningcha, mukammal jamiyat aql-idrokli, ilmli va adolatli hukmdor tomonidan boshqarilishi lozim. Forobiy ilm-fan va falsafani insoniyat taraqqiyotining asosi deb bilib, din va falsafaning uyg'unligini ta'kidlaydi. Imom G'azzoliy esa "Kimyoi saodat" asarida insonning ruhiy poklanishi va ma'naviy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatadi. U tasavvufiy yo'nalishni tanlab, inson qalbini poklash, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va Allohga yaqinlashishni asosiy maqsad deb biladi. G'azzoliy ilmning chegaralarini belgilab, haqiqiy bilimga faqat diniy tajriba va tasavvuf orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Forobiy va G'azzoliy o'rtasidagi asosiy farq shundaki, Forobiy ilm-fan va falsafani haqiqatga erishish vositasi deb bilsa, G'azzoliy diniy tajriba va tasavvufni ustun qo'yadi. Biroq, ikkala mutafakkir ham insonning mukammallikka intilishi va jamiyatning farovonligi uchun ilm va axloq muhimligini ta'kidlaydilar.

Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Forobiyning va G'azzoliyning asarlari chuqur o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari ajratib olindi. Shuningdek, ularning qarashlari Platon, Aristotel va Islom falsafasining boshqa vakillari bilan solishtirildi. Tarixiy va manbaviy tahlil usuli orqali ularning ta'limotlari zamonaviy falsafa nuqtai nazaridan ham baholandi.

Abu Nasr Forobiy va Imom G'azzoliy Sharq falsafasining ikki yirik namoyandasi bo'lib, ularning qarashlari Islom tafakkurining rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Forobiyning "Siyosat falsafasi" va "Fozil odamlar shahri" asarlarida ideal

jamiyat va davlat boshqaruvi konsepsiyalari bayon etilgan. Uning fikricha, mukammal jamiyat ilm va aqlga asoslanishi lozim. Forobiy Platon va Aristotel ta'limotlaridan foydalangan holda, ideal jamiyat tushunchasini ilgari suradi. Uning fikricha, ideal jamiyat aql-idrokli hukmdor tomonidan boshqarilishi lozim bo'lib, bu hukmdor donishmand vaadolatparvar bo'lishi kerak. Forobiy shunday yozadi: "Haqiqiy baxtsaodatga faqat ilm va aql bilan erishish mumkin."

Forobiy ilmiy bilimsiz jamiyat rivojlanmasligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ilm odamning mukammallikka erishish yo'lidagi eng muhim omildir. U falsafani din bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan holda, aql orqali Allohning mohiyatini tushunish mumkinligini ta'kidlaydi. Forobiy, shuningdek, insoniy fazilatlar, axloqiy barkamollik va bilimning jamiyatdagi o'rni haqida ham keng fikr yuritadi.

Imom G'azzoliy esa o'zining "Komyoi saodat" asarida tasavvufiy qarashlarni ilgari suradi. Uning fikricha, insonning oliy maqsadi Allohga yaqinlashish va ruhiy poklanishdir. Bu jarayonda ilm muhim bo'lsa-da, G'azzoliy aqlning chegaralanganligini tan olib, haqiqiy bilim tasavvuf va diniy tajribada ekanini ta'kidlaydi. U shunday yozadi: "Qalb pokligi va Allohga muhabbat bilan inson haqiqiy saodatga erishadi."

G'azzoliy falsafani tanqid qilib, ayrim faylasuflarning dunyoqarashi islomiy e'tiqodga zid kelishini uqtiradi. Ayniqsa, u Aristotel va Forobiyning falsafiy qarashlarini tanqid qiladi. Uningcha, haqiqiy saodatga erishish faqatgina axloqiy poklik, tavba va ibodat orqali amalga oshadi. G'azzoliy fikricha, inson qalbini poklash va Allohning sevgisiga erishish eng oliy maqsaddir.

Forobiy va G'azzoliy qarashlari orasida muayyan farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning ikkalasi ham insonning mukammallikka intilishi va jamiyatning farovonligi uchun ilm va axloq muhimligini ta'kidlaydilar. Forobiy ilm va aql orqali haqiqatga erishishni ilgari surgan bo'lsa, G'azzoliy tasavvuf va ruhiy poklanish orqali mukammallikka erishishni targ'ib qiladi. Ularning ta'limotlari bugungi kunda ham insoniyat uchun ahamiyatli bo'lib, ilm va ma'naviyatning uyg'unligi jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Forobiy fikricha, yagona borliq olti bosqichdan iborat bo'lib, ular ayni bir vaqtida barcha mavjud narsalarning ibtidosi sifatida bir-birlari bilan sababiy bog'lanishdadirlar. Birinchi bosqich – birinchi sabab (Xudo); ikkinchisi – samoviy jismlar borlig'i; uchinchisi – faol aql, to'rtinchisi – ruh; beshinchisi – shakl; oltinchisi – modda. Shunday qilib, xudo va modda, yagona bir butunni tashkil etib, bir qator bosqichlar orqali bir-birlari bilan sababiy bog'lanishdadirlar. O'zlarining sababiy bog'lanishlari tufayli ushbu ibtidolar ikki ko'rinishga ajratiladilar: «vojibul vujud» - shunday narsaki, mavjudligi o'zidan kelib chiqadi; «mumkinul vujud» - shunday narsaki, uning mavjudligi boshqa narsadan kelib chiqadi. «Mumkinul vujud» o'zining bor bo'lishi uchun sababga ehtiyoj sezadi, va qachonki u paydo bo'lsa, boshqa narsa

tufayli, «vojibul vujud» ga aylanadi. Forobiyning ibtidolar haqidagi ta’limoti shundan guvohlik beradiki, unga yangi aflatunchilikning emanatsiya nazariyasi ta’sir o’tkazgan bo‘lib, u ilk islom e’tiqodidagilarning nuqtai nazarlaridan mohiyatan farq qiladi. Birinchi sabab (vojibul vujud) abadiylik xususiyatiga ega bo‘lganligidan, modda ham, uning oqibati sifatida abadiylikka daxldor bo‘ladi. Yerdagi va osmondagи doiralarning barchasi jismiylik (moddiylik) xususiyatiga egadirlar. Barcha narsalar olti ko‘rinishga bo‘linadilar: samoviy jismlar, aqlli hayvon (inson), aqlga ega bo‘lmagan hayvonlar, o‘simliklar, minerallar, to‘rt unsur-olov, havo, tuproq va suv. Oxirgilar moddiylikning asosi bo‘lib, moddaning eng oddiy ko‘rinishini ifodalaydilar. Qolgan besh turdagisi murakkab bo‘lib, ushbu birlamchi unsurlarning turli darajadagi qo‘shilishlari natijasida paydo bo‘ladilar.

FAROBIY JAMIYAT HAQIDA QARASHLARI

Fan va madaniyat olamida o‘z o‘rnii va mavqeiga ega bo‘lgan ulug‘ mutafakkir, zabardast olim, buyuk allomalardan biri, shubhasiz, Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiydir (873—950). Dunyo fani va madaniyati, uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lgan Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat tsivilizatsiyasida tutgan o‘rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o‘chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko‘proq Arastuning asarlarini targ‘ib qildi, ularning ko‘plarini arab tiliga tarjima qildi, sharhlar yozdi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to‘la o‘zlashtirmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining «quli»ga aylanib qolmadni, balki ko‘p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o‘z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o‘zini namoyon qildi.

IKKINCHI MUALLIM

Abu Nasr Forobiy «Sharq Arastusi», «Ikkinch muallim» nomlari bilan O‘rta Osiyo madaniyatining asoschilaridan biriga aylanganligi bejiz emas edi, albatta. Forobiyning shaxsi va ijodi ko‘pgina olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etgan bo‘lib, u haqida ko‘pdan-ko‘p tortishuv va munozaralar bo‘lib turar edi. Uning so‘nmas ilmiy va madaniy merosi ta’siri ostida dunyoning juda ko‘p madaniyat vakillari, jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, Nosir Xisrav, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Grigor Tativatsi, Ioane Petritsi, Rodjer Bekon, Sicher Brabantskiy va boshqa yuzlab fan fidoyilari shakllangan, o‘zligini anglab, mustaqil ijod yo‘lini topib olganlar, desak mubolag‘a bo‘lmas. Forobiy yaratgan falsafiy tizim mazmunan universal xususiyatga ega bo‘lib, o‘z davri fanlarining barcha muhim masalalari — falsafaning umumiyligi muammolaridan tortib, tabiatshunoslik ilmining asosiy falsafiy masalalari, borliqni bilish va mantiqning bahsli

muammolari, inson va tabiat o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlik, ya’ni ekologik muammolarni ham o‘z ichiga oladi.

Fiqh ilmida yozgan «Al-Basit», «Al-Vajiz» asarlari insoniy tafakkuri mo‘jizalari, fiqh ilmida inqilob yasagan noyob asar sifatida baholangani bilan u bu fanni ham kundalik turmush tarziga oid. G’azzoliyning jahon falsafasida tutgan o‘rnini tushunib olish uchun dunyoda dong‘i ketgan muslimmonmas birorta faylasuf bilan solishtirib ko‘rish lozim bo‘ladi. Keling, o’sha faylasuf ularning eng kattasi, yangi falsafa otasi unvonini olgan fransiyalik mashxur faylasuf Rene Dekart bo‘lsin. Dekartni mashxur qilgan asosiy narsa uning shak nazariyasidir. U haqiqiy ma‘rifatga erishishdan oldin shak zarurligini ta’kidlaydi. Uning bu nazariyasi g’azzoliyning shaklariga juda ham o‘xshaydi. G’arbda g’azzoliyni bilmaganlari uchun shak nazariyasi faqat Dekartga tegishli degan e’tiqod ila uni ko‘klarga ko‘tarib maqtaydilar.

Imom G’azzoliyning Falsafa Ilmiga Oid Qarashlari

Sharqda g’azzoliyni bilganlari uchun buyuk faylasuf Dekartning nazariyasiga o‘xshash gapni aytgan shaxs ham borligini eslab qo‘yadilar. Ba’zi birlari jur’at qilib Dekart va g’azzoliyning shaklarini solishtirib ham qo‘yadilar. Ammo bu boradagi haqiqatni hech kim bilmaydi.

U kishi bu borada o‘z ilmiy izlanishlari natijasini falsafa va mantiqqa atalgan o‘z kitoblarida yozib qoldirdilar. Ular quyidagilardir:

1. Maqosidul falosifa. (Faylasuflarning maqsadlari)
2. Tahofutul falosifa. (Faylasuflarning mantiqsizligi)
3. Mahkun nazar fil mantiq. (Mantiqdagi nodir nazar)
4. Me‘yorul ilm fil mantiq. (Mantiqda ilm me‘yorlari)
5. Al-Munqiz minaz Zolal. (Adashishlardan qutqaruvchi)

XULOSA VA TAKLIFLAR. Forobiy va G‘azzoliyning falsafiy qarashlari bir-biridan farqlansa ham, umumiyligi jihatlari ham bor. Forobiy ilm-fan va falsafani asosiy kuch deb bilsa, G‘azzoliy tasavvuf va axloqni oldingi o‘ringa qo‘yadi. Ikkala mutafakkir ham insonning mukammallikka intilishi va jamiyatning farovonligi uchun bilim muhim ekanini ta’kidlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Forobiy, Abu Nasr. "Fozil odamlar shahri". Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.
2. Forobiy, Abu Nasr. "Siyosat falsafasi". Tehron: Donyaye Ketab, 2005.
3. G‘azzoliy, Abu Homid. "Kimyoi saodat". Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
4. Joliboev, O. "Islom falsafasi tarixi". Toshkent: Sharq, 2010.
5. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.

6. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
7. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.
8. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.
9. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g’li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘.” *TADQIQOTLAR. UZ* 40.4 (2024): 135-139..
10. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
11. Shahrnisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
12. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.